



TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI TURIZM OBYEKTLARINING AHAMIYATI VA ROLI

Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna,
Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi PR,
marketing tadqiqotlari, xalqaro aloqalar va
reytinglar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis,
O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi magistranti

Alijonov Akmal Alijon o'g'li
Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi
Turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va
infratuzilmani rivojlantirish sho'basi boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Dunyoda eng tez rivojlanayotgan va mamlakatlar iqtisodiyotiga mo'ay daromad keltirayotgan sohalardan biri, shubhasiz, turizmdir. O'zbekistonda ham turizm yangi bosqichda rivojlanmoqda. Xususan, xorijlik sayyohlarni yurtimizga jalb qilish, ichki turizmni ommalashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilyapti.

Keyingi yillarda O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tizimli ishlar turistlar oqimini oshirish, infratuzilmani modernizatsiyalash, viza rejimini erkinlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi. Masalan, eng liberal viza rejimlari reytingida O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi o'rinni egalladi.

Turizmning sohasini bugungi kunda iqtisodiyotning asosiy draveri Mamlakat miqyosida turizmning asosini tabiiy resurslar tashkil etadi, ular tarkibiga tabiiy landshaftlar, daryolar, tog'lar, mineral suvlar, shifobaxsh buloqlar, iqlim kiradi. Shuningdek, turizm faoliyatini rivojlantirishda madaniy-tarixiy omillar: tarixiy yodgorliklar, muzeylar, hududlarning mahalliy aholisining madaniyati va urf-odatlar va boshqalar muhim rol



o'ynaydi. Turistik faoliyat asosan tabiiy-iqlim va madaniy-tarixiy omillarga qaratilgan. Hududlarni savodsiz o'zlashtirish, tabiiy va madaniy merosdan foydalanishga noto'g'ri yondashuv turizm salohiyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Agar raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2017–2022-yillarda O'zbekistonga kelgan chet ellik sayyohlar soni deyarli 2 barobar oshgan.

2017-yilda ularning soni 2,7 mln nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 5,2 mln nafarga yetdi. 2022-yilda O'zbekistonga kelgan sayyohlar soni 2021-yildagiga nisbatan 3,4 mln kishidan oshgan hamda o'sish 2,8 barobardan ortiqni tashkil etgan. Natijada turizm xizmatlari eksportida ham sezilarli o'sish bo'lgan. 2017-yilda turizm xizmatlari eksporti 546,9 mln.AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 2,9 barobar oshib, 1,6 mlrd.ga yetgan. 2017–2022 yillarda xizmatlar eksportining umumiy hajmida turizm xizmatlari eksportining ulushi 1,8 barobar oshgan.

Navoiy viloyatida turizmning rivojlanishi, hududning sayohatbop manzillari

Nomi	Soni (ta)
Arxitektura yodgorliklari	70
Monumental san'at yodgorliklari	22
Arxeologiya yodgorliklari	340
Diqqatga sazovor joylar	6
JAMI	437





Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shundan, Navoiy viloyatidagi 5 ta madaniy meros obyektlari YUNESKOning butun jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

YuNESCO nigohida Navoiy viloyatidagi madaniy meros obyektlari

QOSIM SHAYX MAQBARASI



U o‘rta asrlarda barpo etilgan bo‘lib, bu yer o‘z vaqtida ilm-ma‘rifat o‘chog‘i bo‘lgani va unda Qosim Shayx Azizon hazratlari yashab ijod etgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu nodir me‘moriy yodgorlikni-Buxoro hukmdori Abdullahon II Qosim Shayxga bo‘lgan ixlosi yuzasidan 1558-yilda Karmanada barpo etgan. Bunyodkorlik ishlarida XVI asrda Karmana bekligi ma‘naviy hayotida o‘chmas iz qoldirgan Qosim Shayx Azizonning o‘zi ham qatnashgan va homiylik qilgan. Xonaqoh taxminan o‘n yil davomida qurilgan. Uning

RABOTI MALIK





Karmana-Qiziltepa yo'lida bugunda qayta tiklangan qadimiy karvon yo'li bo'yida **Raboti Malik** (Shoh Raboti) karvonsaroyi joylashgan. U XI asrning 70-yillarida Qoraxoniylardan bo'lmish Shamsumulk Nasr ibn Ibrohim (1068–1080 y.) tomonidan qurilgan bo'lib, XII asrning birinchi choragida yana shu Qoraxoniylardan bo'lmish Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102–1130 y.) tomonidan ta'mirlangan.

SARDOBA



Raboti Malik peshtoqodan bir oz narida suv Manbai diametric 13 metrcha keladigan gumbaz ostida karvonsaroyga zamondosh bo'lgan sardoba joylashgan. Sardoba hovuzining aylana devori erdan 12 chuqurlikka qadar pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, unda muzday toza suv butun yoz bo'yi saqlangan.

MAVLONO ORIF DEGGARRONIY MASJIDI




Masjid binosi VI-VII asrda qurilgan, Navoiy viloyati Karmana tumani Xazora QFY hududida joylashgan “Mavlono Orif Deggaroniy” jome masjidi viloyatning eng qadimiy masjididir. Masjidning qachon qurilgani to'g'risida har xil ma'lumotlar bor. Masjid hududlari “Deggaron” qishlog'i bo'lgan, “deggaron” so'zining ma'nosi qozon yasovchilar mahallasi degan ma'noni bildirgan va masjid shu mahallada joylashgan bo'lgani uchun uni ham “Deggaron” masjidi deb nomlangan. Bu masjid “Mavlono Orif Deggaroniy” deb atalishi sababi Mavlono Orif deggaroniy xazratlari 1313-yilda Xazora qishlog'ida Deggaron



daxasida tug‘ilgan. Asl kasbi do‘kondor bo‘lib, bo‘z to‘qish bilan shug‘ullangan. Mavlono Orif xazratlari Said Amir kulolning eng yaqin shogirdlaridan biri bo‘lib, ulug‘ alloma, atoqli tarbiyachi, xojagon-naqshbandiya tariqati rivojiga muhim hissa qo‘shgan sohibikaromat zot bo‘lgan. 2007-yil “Mavlono Orif Deggaroniy” jome masjidi katta ziyoratgoh va ko‘rkam manzilga aylandi. Hozirda bu maskan mo‘min musulmonlarning diniy ibodatini ado etadigan ulug‘ dargohlardan biridir.

MIR SAID BAXROM MAQBARASI



“Mir Said Baxrom” maqbarasi milodiy X-XI asrlarda qurilgan bo‘lib, Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning “Samariya” asarida Mir Said Baxrom haqida aytib o‘tilgan. “Mir Said Baxrom” maqbarasi bir gumbazli to‘rtburchak shaklda hamma tomoni bir xil o‘lchovda pishiq g‘ishtdan tiklangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yurtimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar oqimini oshirish borasida O‘zbekiston

Respublikasida ham talay ishlar amalga oshirilmoqda bunga birgina misol Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga binoan, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturlari ijrosini ta’minlash doirasida hamda soha mutaxassisi sifatida fikrlari misol bo‘la oladi.